

# MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRIDA HISSIY SOHANING RIVOJLANISHI VA O‘Z-O‘ZIGA BAHONING NAMOYON BO‘LISHI

**Adilova Madina Shamsidinovna**  
**O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali**

**Annotatsiya:** Bog‘cha yosh davrida o‘ziga-o‘zi baho berish emotsional xarakterga ega bo‘ladi. Bolaning boshqalarga beradigan bahosi hamshunday xususiyatga ega bo‘ladi. Bu yoshda tananing a‘zolari va to‘qimalarida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi: sezgi organlarining spektri aniqroq bo‘ladi, ikkinchi signal tizimining qiymati oshadi, asab jarayonlarining xususiyatlari kattalar asab jarayonlarining xususiyatlariga yaqinlashadi. Bularning barchasi ta‘lim faoliyatida zarur bo‘lgan aqliy jarayonlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ruhij jarayonlar va atrof-muhit ta‘sirida hissiy-irodaviy sohaning rivojlanishi va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi sodir bo‘ladi. Bola o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi hurmat qilish mexanizmlarini ishga tushiradi. Maktabga qiziqish ham paydo bo‘ladi, o‘rganish motivatsiyasi, mustaqillik, mehnatsevarlik paydo bo‘ladi. Biroq, agar bolada ma‘lum bir psixologik moslashuvchanlik ishlamas, maktabning moslashuvi bilan bog‘liq muammolar ham paydo bo‘lishi mumkin. Shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglashning paydo bo‘lishi etti yillik inqirozning sabablariga aylanadi. Biroq, kattalar tomonidan to‘g‘ri yondashuv bilan, hissiy holat barqarorlashadi va ichki qulaylik tiklanadi.

**Kalit so‘zlar:** bola nutqi, xotira, me‘yor, psixologiya, nutqiy faoliyat, idrok, ong, mulqot, jarayon, shaxs, fikr, motivatsiya, darajalanish, psixika, o‘ziga-o‘zi baho.

**Kirish:** O‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanish bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o‘zini, ham o‘zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo‘la boshlaydi, ya‘niy unda o‘zining ijtimoiy “men”ini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keying yosh davriga o‘tishida hamda uning maktabda psixologik tayyorligida muhim ro‘l o‘ynaydi. Bola uning o‘rab turgan kattalardan qaysi biriga ishonch xis etsa mexri tovlansa o‘sha kishiga ijobiy baho beradi katta bog‘ch a yoshidagi bolalar ularning o‘rab turgan kattalarning ichki olamiga baho berishga harakat qiladilar o‘rta va kichik bog‘cha yoshidagi bolalarda farqli ravishda kattalrning ichki olamiga anchagina chuqur va diferensiyalashgan baho beradilar.

Aniqlanishicha bolalarning guruhda egallagan mavqeyining o‘ziga-o‘zi

beradigon bahosiga tasir etadi. Masalan, guruhdagi mavqei unchalik baland bo'lmagan bolalarda o'ziga juda yuqori baho berish aksincha guruhdagi mavqei ancha yaxshi bo'lgan bolalarda o'zining past baholash tendensiyasi kuzatilgan. Bog'cha yoshining oxiriga kelib bolaning atrofida gilarga beradigon bahosi ancha chuqur, to'liq detallashgan va kengaytirilgan tus ola boshlaydi.

Bu o'zgarishlar shu bilan tushuntiriladikiy, katta bog'cha yoshida bolalarda odamlarning ichki olamiga qiziqish ortib boradi, ular baho berishda muhim bo'lgan mezonlarning o'zlashtirib boradilar tafakkur va nutuqlari rivojlanib boradi. Bog'cha yoshining oxiriga kelib bolaning o'zgalarga va o'z -o'ziga beradigon bahosidagi mustaqillik, tanqidiy ruh ancha o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalar motivatsion sohasi aktiv rivojlanib boradi. Kichik bog'cha yoshidagi bolaning xulq atvori ilik bolalik davrida unchali farq qilmaydi. Bu davirda xam bolalar asosan sitatsiyon emotsiyanal xoxish-istaklari tasirida harakat qiladilar, bilan harakatining bajara turib ular nima uchun shunday qilayotgonliklaridan to'liq tushunmaydilar va tushuntira olamydilar. Katta bog'cha yoshidagi bolalarning xatti-xarakatlari ancha aniq tarzda ro'y beradi.

Xar xil motivlar bog'cha yoshida turli bosqichlaridagi bolalarning aynan bir harakatini amalga oshirishga undaydi masalan 3 yoshli bola o'yinchoqlarni yuvishida maqsadi suv o'ynash bo'lsa 6 yoshli bolaning maqsadi o'yinchoqlarning tozzaqilish onasiga yordam berishdan iborat bo'ladi. Bog'cha yosh davrida motivatsiyon sohada aynan shu davirga xos motivlar paydo bo'ladi. Bular orasida bolalarning kattalar olamiga bo'lgan qiziqishi ularga o'xshashga harakat qilishi bilan bog'liq motivlar xam mavjud.

Maxsus tadqiqotlqr "L.Z.Neverovich" va boshqalarni ko'rsatishicha o'z tabiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'lgan motivlar bog'cha yoshidayoq ancha katta xat6 shaxsiy maanfat va faoliyatning tashqi, protsessual tamonlariga qiziqish kabi motivlarda ham kattaroq undovchi kuchga ega bo'lishi mumkun. Biroq tabiatdan mazmunan ijtimoiy bo'lgan motivlar spontan ravishda tasodifiy, o'z-o'zida yuzaga kelmay, balkiy kattalarning tarbiyalovchi tasiri ostida shakillanadi. Demak bog'cha yosh davrida xulq-atvorning yangi motivlari paydo bo'ladi. Bu motivlar muayyan o'zaro munosabatlarga kirishib, bir biriga bog'langan holda motivlar ierarxiyasining hosil qiladi. Motivlar ierarxiyasini bog'cha yosh davridagi bolalarning motivatsiyon sohasida paydo bo'luvchi va uning rivojlanishida juda muxim o'rin egallavchi tuzulma bo'lib hisoblanadi motivlar ierarxiyasidagi motivlarning bir biriga o'z aro tobe bo'lib bog'langanligi tufayli bolalar muxim, lekin ancha zerikarli vazifaning bajarish uchun ayni damda unga qiziqarli bo'lib ko'ringan mashg'ulotdan voz kechishi mumkin. Bog'cha yosh davrida faoliyat motivlari malum bir tizimga tushib, ayrim motivlar boshqalarida ustun kela

boshlaydi. Qanday motivning ustun kelishi bola hulq-atvorining yoʻnalishining belgilab beradi. Bogʻcha yosh davrida bola shaxsining oʻzagi endigina shakillanayotgan boʻlsa ham shu davridayoq bolalar hulq-atvorida malum bir yoʻnalganlik kuzatila boshlaydi.

Bu yoʻnalganlik bir xil – egoistik yoʻnalganlikdan tartib individualistic, ijtimoiy yoʻnalganlikkcha boʻlishi mumkun (albatda, ushbu yoshning imkoniyatlari doirasida).

Bogʻcha yoshidayoq bazi bolalar xulq-atvorida yaratuvchanlik ayrim bolalarda buzgʻunchilikka istimolchilikka boʻlgan mayillar yorqin namoyon boʻladi. Tarbiyachi va ota onalar bunday mayillarning tez payqab olish lozim. Chunki bu salbiy xususiyatlarning oʻz vahtida korreksiya qilish, ijtimoiy jihatdan qadirlanadigon ehtiyoj va motivlarni shakillantirish, bari bir bola uchun oʻz-oʻzini namoyon etishga sharoit yaratish imkoniyatining beradi.

Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakillana boshlaydi. Oliy hissiyotlarga intellektual, estetik va axloqiy hissiyotlar kiradi. Bilish faoliyat jaroyonida yuzaga chiqadigon hissiyotlar intellektual hissiyotlar deyiladi. Bularga qiziquvchanglik, xayron boʻlish, yangilikdan zavqlanish, xushchaqchalik hissiy jarayonida namoyon boʻladi. Atrof olam xaqida toʻgʻri tasavvurlarga ega boʻlgan bolalar predmetlarga ular uchun xos boʻlmagan belgilarni ato etishini yaxshi korishadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga ijtimoiy xayot taʼlablari, yaniy axloqiy meyyorlarni bajarish yoki bajarmaslikga bogʻliq ravishda muayyan kechinmalar yuzaga keladi. Burch hissini ilk bor namoyon boʻlishi 4-5 yoshlarga toʻgʻri keladi. Chunki bu davirda mavjud bilimlar, koʻnikma va malakalar asosida bolada axloqi oʻng shakilana boshlaydi. Chunki bu davirda bolalar kattalrning talablarining tushina boshlaydi va ularning hati harakati boshqalarni xulq atvoriga taqlid qila boshlaydi. Maktabgacha yoshida bolalar faxir va uyat kabi kechinmalar ham paydo boʻladi. Faxir hissning paydo boʻlishi uchun bola ongida konkiret fazilatlar bilan atrof idagilarning ularga beradigon ijobiy bahosi; oʻrtasida mavjud aloqadorlik haqida shakillangan tasavvurlar ichki asos boʻlib xizmat qiladi. Jumladan, 4-5 yoshli bolalar faoliyatning harxil turlarida erishadigon miqdori koʻrsatkichlar bilan birgalikda chiroyli raqisga tusha olish; tez chopa olish, ahloqiy xususiyatlar (chidam, diqqat), bilan ota onalar faxirlanadilar. Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy hissiyotlar taboro koʻproq bola hulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlari vositasida bolalar jamiyatda oʻrnatilgan estetik ahloqiy talablarga muvaffiq ravishda oʻz xoxish istaklarida, xati-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlaring rivojlanishi bir qator shartalr bilan bogʻliq. M.L. Lismaning tadqiqotlari koʻrsatishicha emotsiya

va hissiyotlar bolaning kattalarni va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqati jaroyonida shakillanadi. Hayotining dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsiyanal rivojlanish butun hayot davomida saqlanib qolishi mumkin. Buning sababi shuki, maktabgacha ta'ribya muassasalarida bitta kishiga ko'p bola to'g'ri keladi. Natijada tarbiyachilarining har bir bola bilan emotsiyanal kontakti ko'p bo'ladi. M.M. Koltsovaning malumotlariga ko'ra, oiladagi nosog'lom muhit darhol bolaning chizadigon rasimlarida aks etadi. Oiladagi natog'ri munosabatlar bazida bir tamonlama afektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolalarning tengdoshlari bilan muloqatda bo'lishi susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga, bog'liq bo'lib qoladi, bola, xat6, kuchli salbiy kechinmalar (masalan, o'zi bog'lanib qolgan odamga nisbatdan rashq) nix is qilishi mumkin. M.M. Kolsava va V.S. Muxinaning tadqiqotlqidq ko'rsatilishicha, bolada ota ona nisbatdan rashqning namoyyon bo'lishi oilada yangi farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'ladi. Emotsiyalar va hissiyotlar maktabgacha yosh davrida etakchi bo'lgan faoliyat turi o'yinda juda intensive rivojlanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma xil kechinmalarga keng boy faoliyat turidir. Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati kechadigon ijtimoiy psixologiya vaziyat bilan bog'liq. Emotsiyanal vaziyatlar, yani kuchli kechinmalarning uyg'atuvchi vaziyatlar yangiligi, g'ayri oddiyliqi bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatdan ancha ko'p emotsiyalarning boshdan kechiradi, buning sababi shundaki, bolaning hayotiy tajribasi hali ko'p bo'lmaganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib va yangi bo'lib ko'rinadi.

Vaziyatga ko'ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muhabbat, xursantchilik), xam salbiy (jahil, nafrat) bo'lishi mumkin agar bola ehtiyojlarining qondira olish imkkoniyatiga ega bo'lish ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo'ladi. Bordiyu, vujudga kelgan vaziyatda bola o'z ehtiyojlarining qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasa salbiy (astenik) emotsiyanal kechinmalar paydo bo'ladi.

Umuman olganda, bolalar hayoti vaziyatlarga optimistic munosabatda bo'ladilar, ularga tetik, hayotdan mamnunlik kayfiyati xos, emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarining, shunigdek shartlari va yosh xususiyatlarining hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakillantirish imkonining beradi. Maktabga psixologik tayyorgarlikning asossiy komponentlaridan biri emotsiyanal tayyorgarlikdir. Bu tayyorgarlik nafaqat maktabda ta'lim bo'lishning xursandchilik bilan kutib olish, balki shu bilan birga oliy hissiyotlarning ancha rivojlangan bo'lishi, bola shaxsining emotsiyanal xususiyatlarining shakillangan bo'lishining taqozo qiladi.

**Xulosa:** Bola narsa va hodisalarning tashqi tomonini ko‘radi. O‘rganish ta’sirida hodisalarning tashqi tomonini bilishdan ularning mohiyatini bilishga, muhim xususiyatlar va belgilarni fikrlashda aks ettirishga bosqichma-bosqich o‘tish sodir bo‘ladi, bu esa birinchi umumlashtirish, xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shuasosda bolada ilmiy tushunchalar asta-sekin shakllana boshlaydi. Ilmiy tushuncha dunyoni tafakkurda aks ettirish shakllaridan biri bo‘lib, uning yordamida hodisa va jarayonlarning mohiyati ma’lum bo‘ladi, ularning muhim tomonlari va xususiyatlari umumlashtiriladi, og‘zaki va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun nihoyatda muhimdir. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz o‘quv faoliyatini o‘zlashtirishning muvaffaqiyati aqliy jarayonlar, shaxsiy fazilatlar va intellektual tayyorgarlikning muvaffaqiyatiga bog‘liq degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu mahalliy va xorijiy psixologlar tomonidan isbotlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Umarov.B.M, Norbekova.B.Sh Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi
- 2.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA’LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
- 3.Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
- 4.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(2).
- 5.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(1).
- 6.Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
- 7.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O ‘ZINI-O ‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 8.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 9.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.

- 10.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 11.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 12.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
- 13.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
- 14.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O‘TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O‘SMIRLAR KELIB CHIQUVCHILIGIGA TA’SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 15.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 16.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
17. Norbekova, B. (2022). O‘roqboyeva M. Maktabgacha ta‘limda psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 481-483.
- 18.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
- 19.Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.
- 20.Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
- 21.Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
- 22.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>

23. Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>